

SHAXS RIVOJLANISHIDA PSIXOANALITIK RIVOJLANISH NAZARIYASI

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti talabasi
Raximova Dilafruz Xusnitdin qizi**

Annotatsiya: Inson psixikasi va psixologiyasi murakkab o’rganish sohasi bo’lib, ularning individualligi bilan ajralib turadi. Ammo olimlar hayotning ma’lum davrlarida psixikaning rivojlanishiga oid asosiy qoidalarni aniqladilar. Hozirgi XXI asrda psixoanalitiklar, psixiatrlar va psixoterapevtlar psixoanalitik nazariya kabi bilimlar tobora rivojlanib bormoqda. Bu soha rivojida esa psixoanalitik nazariya asoschisi Zigmund Freydning o’rni beqiyos.

Kalit so’zlar : psixoanaliz, psixoanalitika, U, Men, Oliy Men, ontogenez, motiv, psixik rivojlanish, instinkt.

Kirish. Ontogenezda rivojlanish psixikasi tushunchasiga psixoanalitik yondashuv asoslari Z.Freyd tomonidan kiritilgan. Psixik rivojlanish psixoanalizida qiziqishlar, motivlar va tuyg’ular sohasini murakkablashishi jarayoni bilan shaxs rivojlanishi hamda uni tuzilishi va funksiyalarining takomillashishi bilan tenglashtiriladi.

Z.Freyd inson psixikasma 3 bosqichga, ya’ni psixik jarayonlarni prinsipial anglash imkoniyati mezoni bo’yicha ong, ongosti va ongsizlikka ajratadi. Uning ilmiy qiziqishlari birinchi navbatda jinsiy va agressiv qiziqishlarning majmuasiga qaratilgan. Aynan ongsizlik birinchi bo’lib jamiyatga qarshi turadi. Freyd shaxs rivojlanishini individni tashqi ijtimoiy dunyoga moslashishi sifatida kiritgan hamda unga begona, lekin juda ham zarur deb hisoblaydi.

Inson shaxsi Z.Freyd bo’yicha o’z tarkibiga tuzilmaviy tarkibiy qismlarni qamrab oladi: U; Men; Oliy Men. U (Id)-shaxsning primitiv yadrosi u tug’ma xarakterga ega. «Id» ongda aks etmaydi. U ong ostida joylashgan, to’g’rirog’i, ong ostiga tiqishtirilgan. «Id» qoniqish printsiplariga asoslanib faoliyat ko’rsatadi. U da tug’ma impulsiv qiziqishlar mavjud (hayot instinkti Eros va o’lim instinkti Tanatos) va psixik rivojlanishni energetik asosini tashkil etadi.

Men (Ego) shaxsni ratsional va anglanuvchi qism. U biologik yetilishga ko’ra, hayotning 12 va 36 oylari orasida yuzaga keladi va reallik prinsipi bilan boshqariladi. Egoning vazifasi sodir bo’layotganlarni tushuntirish va insonning xulqini shunday tuzish kerakki, uni instinktiv talablari qondirilishi, jamiyatning va ongning cheklovlari buzilmasligi kerak. Egoning hamkorligida individ va sotsium o’rtasidagi nizo hayot mobaynida sustlashishi kerak.

Oliy Men (Super Ego) shaxsning tuzilmaviy tarkibi sifatida eng oxirida 3—6 yoshlar orasida shakllanadi. Super Ego insonning moslashishini ifodalaydi va bu jamiyatda qabul qilingan normalarga amal qilishini qattiq nazoratga oladi. Id va Super Ego tarafidagi an’analar odatda nizoli xarakterga ega bolib, bu xavotirlanish, asabiylashishni keltirib chiqaradi.

«Id» doimo «Men» va «Super-men» bilan murosasiz jang olib boradi, chunki ular «Id»ni tinimsiz nazorat qilishga intiladi. «Id» kuchli energiyaga ega bo’lsa-da, «Men» uni ong ostidan suzib chiqishiga yo’l qo’ymaydi. Shuning uchun ham «Id» tajovuzkordir.

«Men» nazoratni to’la qo’lga olgunga qadar instinktlar go’yoki odamning hayot tarzini, ya’ni xulq-atvorini belgilab bergan. «Men» rivojlanishi odamning hayot tarzini o’zgartirib yubordi va uning xulq-atvorini nazorat ostiga oldi. O’sha paytda ham, hozirda ham psixoanalitiklar «Id» – bu odamning hayot tarzini belgilab beruvchi asosiy manba deb hisoblashadi. «Id» o’zgarimas, «Men» esa o’zgarib, rivojlanib boradi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Xulosa: Odam boshqa jonzotlardan aql-zakovat, ya’ni ongning borligi bilan farq qiladi. Demak, ong – bu «Men» demakdir. Agar odam faqat «Id»ga bo’ysunib yashaganida edi, uning hayot tarzi hayvonlarnikiga o’xshab qolardi. Vaholanki, odam faoliyati ongli jarayondir va u o’z xatti-harakatlarida ham, asosan onnga tayanadi.

Psixanalitiklar odamni, aniqrog’i, uning ruhini tirik hujayraga o’xshatishadi. Bunda hujayraning tashqi pardasi «Men» bo’lsa, uning ichki tarkibi – «Id». Hujayraning ichida moddalar almashinuvi natijasida katta energiya to’planadi va kuchli energiyaga ega bo’lgan «Id» tashqariga yorib chiqqisi keladi. Bunga esa hujayraning tashqi pardasi, ya’ni «Men» yo’l qo’ymaydi. «Super-men» esa – barcha «Men»larning yig’indisi. Hujayra organizmda hayot kechirgani kabi, organizm ham hujayrasiz yashay olmaydi. Organizm ham huddiki, «Super-men».

«Super-men», «Men» bilan birgalikda seksual xususiyatlarga boy bo’lgan «Id»ni nazorat qiladi. Buning natijasida ular orasidagi ziddiyatlar kuchayadi. Z.Freydning fikriga ko’ra, nevrozning kelib chiqishiga «Super-men» va «Men» sababchi. Psixanalitiklar nevrozni psixoterapevtik yo’l bilan davolashda aynan mana shu nazoratni kamaytirish yoki to’xtatishga va shu yo’l bilan «Id»ni ong doirasiga suzib chiqishiga yordam berishadi. Buning natijasida «Id» tajovuzkorligi pasayib, nevroz belgilari chekinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent — 2018

N.Ismailova, D. Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent — 2013

2.Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent — 2019

Ibodullayev ensiklopediyasi., 2022 y

Ziyonet internet portali.